

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYOTI
FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

“Maktabgacha ta`lim va bolalar sporti” ta`lim yo`nalishi

*“Elementar matematik tasavvurlarni
shakllantirish”*

fanidan yangi innovatsion texnologiya asosida
tayyorlangan

**MA'RUZA MASHG'ULOTLARI
ISHLANMALARI**

2-kurs 3-4-semestr
3-kurs 5-6 semestr

Navoiy – 2011

Ushbu ma`ruzalar to`plami “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish” fanidan bakalavr ta`lim yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchi: katta o`qituvchi Ungarov.B.H.

Taqrizchi: dots.Jalilov.A.A.

Ushbu ma`ruzalar matni Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasining 2011 yil 27-avgust 1-sonli yig`ilshida muhokama qilingan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Kirish

Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish asosida ta'lim jarayonining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Pedagoglar ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o'quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko'zlamoqdalar. **Avvalombor**, shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan har bir kishi pedagogikning falsafiy jabhalaridan, ilm-fan va texnika sohasidagi o'zgarishlardan, yangi paydo bo'lgan dunyoqarash va ilmiy oqimlardan xabardor bo'lishlari kerak.

Ikkinchidan, har bir pedagog bolaga ta'lim-tarbiya berish masalasi bilan shug'ullanar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari hamda milliy istiqloq g'oyalari bilan qurollangan bo'lishlari kerak.

Uchinchidan, nazariy jihatdan to'la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda ta'lim jarayoniga qo'llash eng dolzarb masalaga aylangan.

Ushbu ma'ruzalar to'plamida "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" fanining umumiy masalalari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qitish jarayonini loyihalash algoritmi mavjud bo'lib, katta modullar va o'rta modullarga hamda o'quv soatlarining umumiy soniga qarab o'quv reja asosida taqsimlangan. O'rta modul tarkibidagi kichik modullarga aniq maqsadlarning qo'yilishi va ularga ajratilgan vaqtning chegaralanganligi pedagogik texnologiyalarni joriy etilganligining eng muhim belgisidir.

Modullardagi tayanch tushunchalarning va nazorat savollarining aniqlanishi hamda test savollarining tuzilishi egallangan bilimlarni malakaga aylantirish uchun zamin yaratadi. Ma'ruzada o'rta modulda qo'llaniladigan dars turi, tipi hamda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublarni aniqlab, ishlatadigan joylarini belgilash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu esa uslubiy qo'llanmada o'z aksini topgan. Ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalaridan unumli foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Muayyan modulda o'qitishning texnik vositalarini topib, qo'llanish joylarini aniqlash mazkur qo'llanmada o'z aksini topgan.

Ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan har bir kishi bugungi kunda yuzaga kelayotgan yangi tushunchalarni anglashi, shuningdek darslarni loyihalash asosida modulli o'qitish texnologiyalardan ham xabardor bo'lishlari kerak. Ushbu ma'ruzalar to'plami kam kuch va kam vaqt sarflab, chuqur va puxta bilimlar berish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Loyihalash asosida modulli o'qitish nazariy jihatdan to'la asoslangan bo'lib, bugungi kunda uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish eng dolzarb masalaga aylangan.

Modulli o'qitish texnologiyasida fe'llar tizimini qo'llash didaktik tamoyil bo'lib, talabalarga berilgan bilimni, albatta ularning ko'nikmasiga aylantirib berishni talab qiladi. Berilgan bilimning yakuniy natijasi ko'nikma shaklida namoyon bo'lishi deganda, talabalarining egallagan bilimlari asosida qandaydir amaliy faoliyatlarni bajara olishlari tushuniladi. Bu harakatlar fe'l shaklida bo'lib, ish-harakatning bajarilganligini bildiradi. Berilgan nazariy bilim asosida qandaydir

ish-harakatni bajarish deganda, talabalar berilgan bilimni, kamida, mustaqil ravishda aytib bera olishliklarini ham anglanadi.

«Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi» o`quv predmeti bo`yicha ta`lim texnologiyasi ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarni o`qitishning xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan ilg`or pedagogik texnologiya qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

Fanni o`qitish texnologiyasi quyidagi tartibda ishlab chiqilgan.

- Ma`ruza mashg`ulotlarini olib borishda ko`proq ko`rgazmali, muammoli, informatsion va tematik shakllarga e`tibor qaratilgan.

- Amaliy mashg`ulotlarni olib borishda muammoli savollarni guruhlariga bo`lingan holda muhokama qilish, individual tarzda ishlash, muammoli vaziyatni keys-stadi usulidan foydalanib nazariy bilimlarni amaliyotga qo`llash bo`yicha ko`nikmalar va bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

3. O`quv fani bo`yicha ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarda o`qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari

O`zbekiston jahon hamjamiyatida o`zining munosib o`rnini topmoqda. Davlatimizning iqtisodiy taraqqiyotini ta`minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma`rifiy sohalarda tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yuqori sifatli kadrlar salohiyatiga bog`liq. Shu bois, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jahon andozalari darajasida kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish vazifasi qo`yildi. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va boshqa me`riy hujjatlar nafaqat milliy ta`lim taraqqiyoti va kadrlar tayyorlash tizimini istiqbolini belgilovchi hujjat, balki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot kafolati sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining birinchi bosqichida amalga oshirilgan islohatlar sohani yangi sifat bosqichiga ko`tarishga zamin hozirladi. Ikkinchi bosqich-ta`lim jarayonidagi sifat ko`rsatkichlarini yaxshilash, ya`ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo`lgan mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalda keng qo`llash oliy ta`lim tizimi xodimlari oldida katta vazifalar qo`ymoqdi. Bunda, aniq vazifalar sifatida bevosita o`quv jarayonini yaxshilash, o`quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o`qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanishdan iboratdir.

Ta`limning sifati va uni tashkil etish usuli o`qituvchining mahoratiga, talabaning xohish-istagiga, qobiliyati va bilim darajasiga bog`liq. Ta`limning natijasi bilim bilan belgilanadi. Bilim ob`ektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in`ikosi, inson miyasidagi mushohada va tasavvurlar natijasida hosil bo`ladigan tushunchalar yig`indisi sifatida namoyon bo`ladi. Xulosa qilib aytganda, ta`limning

sifati uni berishda ishtirok etadigan kishilar salohiyati va o`quv jarayonining darajasiga bog`liq.

O`quv jarayoni bilan bog`liq ta`lim sifatini belgilovchi holatlar-yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma`ruzalar o`qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va mul`timedia qo`llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o`rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilishdan iborat bo`lib, ushbu tadbirlar ta`lim ustivorligini ta`minlaydi. Bunda har bir fanning o`ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, hamda spitsifikasiga asoslanish maqsadga muvofiq.

«Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi» kursini o`qitish yuqorida ta`kidlangan ta`lim texnologiyalariga asoslanishi va quyidagi kontseptual yondoshuvlarga asoslanishi kerak:

Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim. Bu ta`lim o`z mohiyatiga ko`ra ta`lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta`limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma`lum bir ta`lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta`lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo`naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta`lim oluvchining faoliyatni faollashtirish va intensivlashtirish, o`quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo`naltirilgan ta`limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o`quv jarayoni ishtirokchilarning psihologik birligi va o`zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta`limni tashkil etish.** Demokratilik, tenglik, ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi o`rtasidagi sub`ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e`tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta`lim.** Ta`lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta`lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob`ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo`llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta`minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash** – yangi komp`yuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

Keltirilgan kontseptual yo`riqlarga asoslangan holda, «Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi» kursining maqsad va vazifasi, tarkibiy tuzilishi va ta`lim jarayonida tutgan o`rni, o`quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqib, ma`lum sharoit va o`quv rejasida belgilangan vaqtda

o`qitish, kommunikatsiya, axborot va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullar va vositalar tanlovi amalga oshirildi.

**O`qitishning usullari va texnikasi.** Ma`ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli.

**o`qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

o`qitish vositalari o`qitishning an`anaviy shakllari (darslik, ma`ruza matni) bilan bir qatorda - komp'yuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so`rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o`quv mashg`uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko`rinishidagi o`quv mashg`ulotlarini rejalashtirish, qo`yilgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg`ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o`quv mashg`ulotida ham butun kurs davomida ham o`qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA “ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH” FANINING MILLIY MODELI

Maktabgacha ta'lim yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi. Shu bois, biz pedagogik texnologiyalarning – zamonaviy o'zbek modelini maktabgacha ta'limda o'qitish metodikasi misolida amaliyotga qo'llashni rejalashtirdik.

Modul - pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik modullardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab o'rta va katta modullar deb atadik. Modulli o'qitish texnologiyasi, majmuli yondashuvni ifodalaydi. Majmular nazariyasiga asoslangan modulli o'qitish texnologiyasi o'z xususiyatlariga ega bo'lib, ta'lim sohasida mehnat qilayotgan har bir xodimning ijodiy faoliyatiga, dunyoqarashiga samarali ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, majmular nazariyasi nazariy jihatdan to'la asoslangan didaktik tamoyil va qonun-qoidalariga amal qiladi.

II. O'qitish jarayonini loyihalash algoritmi

T/r	Loyiha tuzish bosqichlari va bajariladigan amallar
1.	“Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” fanini bir butun deb qarab, mazmun va hajmi jihatidan katta va o'rta modullarga ajratish hamda katta modullar maqsadlarini belgilash.
2.	Katta modul tarkibidagi o'rta modullarning mavzulari va maqsadlarini belgilash.
3.	Maqsadlarning amalga oshishidan paydo bo'ladigan ko'nikmalarning fe'llar shaklidagi majmusini tuzib chiqish.
4.	O'rta modul tarkibidagi kichik modullarning maqsadlarini aniqlash va ularga ajratilgan vaqtni belgilash.
5.	Modullardagi tayanch tushunchalar va nazorat savollarini aniqlash.
6.	Baholash mezonlarini belgilash.
7.	O'rta modulda qo'llaniladigan dars turi, tipi hamda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublarni aniqlab, ishlatadigan joylarini belgilash.
8.	O'qitish jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar va boshqa didaktik materiallar zaxirasi ichidan muayyan modulda foydalaniladiganlarini topib, qo'llanish joylarini aniqlash.
9.	O'rta modul mazmuni va o'qitish jarayonining borishini ifoda etuvchi modul matnini yozish.

III. “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish” fanining katta modullari, ulardan ko'zlangan maqsadlari va tarkibidagi o'rta modullar soni

T/r	Katta modullar nomi	Modullardan ko'zlangan maqsad	O'rta modullar soni
1.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish asoslari va metodikasi kursining nazariy asoslari.	Predmetlar tuplami va uziga xos xususiyatlari; tuplamning xarakteristik xususiyatlari; universal tuplam. Munosabatlarning xususiyatlari. Ekvivalentlik munosabati. Tartib munosabati. Butun sonlar miqdoriy tartib nazariyasining asosiy goyalari. Muxammad ibn Muso-al Xorazmiy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jamshid Giyosiddin al-Koshiy, Ulugbek asarlarida arifmetikaning rivojlanishi xakida dastlabki ma'lumotlar. Psixologik – pedagogik adabiyotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari. ye.I.Tixiyeva, F.N.Blexer, maktabgacha yoshdagi bolalarni matematika elementlariga urgatish tugrisida. O'zbekistondagi bolalar bogchalarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi asoslarining rivojlanishi.	1 ta (ma'-ruza), 1-ta amaliy mashg'ulot, 2 ta (mustaqil ta'lim)
2.	Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematika elementlariga o'rgatishini tashkil qilish.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini amalga oshirish. Bolalar bogchasining turli yosh guruxlarida matematika mashg'ulotlarini utkazish metodikasi va tashkil kilish xususiyatlari. Matematika mashg'ulotlarini utkazishga kuyiladigan metodik talablar: mashg'ulotlarning davomiyligi, ularning davriyligi, dastur materialini bulaklarga bulib batafsil takdim etishning zarurligi. Mashg'ulotlarn utkazishda didaktik materiallar va metodik usullarni almashtirish. Tushuntirish, namuna, namoyish kilishlarning roli. Dastur materialini urganishning turli boskichlarida uyin usullarining tutgan urni. Matematik bilimlarni uzlashti-rishda amallar va mashklarning axamiyati. Mashg'ulotda tarbiyachining faoliyatiga kuyiladigan talablar.	2 ta (ma'-ruza), 1-ta amaliy mashg'ulot, 2 ta (mustaqil ta'lim)
3.	Hayotning uchinchi va to'rtinchi yilida bolalarda miqdoriy	Talabalarda miqdoriy tasavvurlar tushunchasini hosil qilish. Talabalarning miqdoriy tasavvurlarni hosil qilish metodlarini qo'llashda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish kasbga qiziqishini tarbiyalash	1 ta (ma'-ruza), 1 ta (ama-

	tasavvurlarni rivojlantirish.	Talabalarning elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodlari bo'yicha bilimlarni mustaqil ravishda egallashlariga erishish va ularda bu bilimlarga ko'nikmalar hosil qilish	liy), 3 ta (mustaqil ta'lim),
4.	3-4 yoshli bolalarda miqdoriy tasavvurlarning xususiyati.	Bolalarda predmetlar bilan ishlash tajribasi asosida boshlangich miqdoriy tasavvurlarni rivojlantirish. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdor tasavvurlarning o'ziga xosligi. Predmetlar guruxini miqdor bo'yicha taqqoslash xususiyatlari. Son-sanoqdan oldingi davrining bolalarda sanash faoliyatining keyingi rivojlantirishidagi faoliyati.	1 ta (ma'ruza), 1 ta (amaliy mashg'ulot), 2 ta (mustaqil ta'lim)
5.	Bolalarda son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish sanashga o'rgatish.	Sanash va o'lchash jarayonida bolalarda butun sonlar qatori haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Sanash faoliyatining rivojlanish bosqichlari Sanash natijalarining predmetlarining sifat belgilari va ularning fazoviy joylashuviga bogliq emasligi. Sonning belgisi buyicha o'ziga xoslikni umumlashtirish. Bolalarni butun predmetni teng bo'laklarga bo'lishga o'rgatish.	1 ta (ma'ruza), 1-ta amaliy mashg'ulot, 1 ta (mustaqil ta'lim)
6.	Bolalarda premetlarning shakli haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.	Geometrik figura predmetlarning shaklini idrok qilish etaloni sifatida. Bolalarning predmetlar shakli va geometrik figuralarni idrok qilishning uziga xos xususiyatlari. Tadkik qilish amallari va ularning shaklini bilishdagi roli. SHakl xakidagi tasavvurlarni idrok qilish va shakllantirishda suzning roli Geometrik figuralarni turli belgilari buyicha guruxlarga ajratish. Geometrik figuralarni burchaklari tomonlari soni buyicha takkoshlash; ularni ulchash; umumlashgan tushunchalarni shakllantirsh.	1 ta (ma'ruza), 1 ta (amaliy mashg'ulot), 4 ta (mustaqil ta'lim)
7	Bolalarda predmetlarning o'lchami va ularni ulchash	O'lchash haqida tushuncha, o'lchamning asosiy xususiyatlari, ilk va maktabgacha yoshda predmetlarning o'lchamni idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlari.hissiy bilish - kulam haqidagi	1 ta (ma'ruza), 1 ta

	xaqidagi tasavvurlarni shakllantirish.	tasavvurlarni shakllantirishning asosidir. Predmetlar o'lchamini idrok qilish va taqqoslashda so'zning roli.	(amaliy mash-g'ulot), 5 ta (mustaqil ta'lim)
8.	Bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish.	Fazo va fazoda muljal olish xakida tushuncha. Bolalarda fazoda muljal olishni rivojlantirishning xissiy asosi. Idrok qilish va fazoda muljal olishda suzning roli. Bolalarning tevarak atrofidagi fazoda muljal olishni uzlashtirish. Kurib idrok qilish va o'lchash asosida.	2 ta (ma'-ruza), 1 ta (amaliy mash-g'ulot), 5 ta (mustaqil ta'lim)
9	Bolalarda vaqt tasavvurlarni shakllantirish.	Vaqt va uning xususiyatlari. Turli yoshdagi bolalarning vaqtni idrok qilishi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqtni his qilishni rivojlantirish. Faoliyatni vaktda rejalashtirish, ajratilgan vaqtga va ish ko'lamiga bog'liq holda ishning tempi va ritmini tartibga solish qobiliyatini rivojlantirish	1 ta (ma'-ruza), 1 ta (amaliy mash-g'ulot), 5 ta (mustaqil ta'lim)
10	Bolalar bog'chasida bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha ishni rejalashtirish va qayd qilish.	Maktabgacha tarbiya muassasalarida matematika bo'yicha ishlarni rejalashtirish va qayd qilishning ahamiyati. Matematika bo'yicha ishni rejalashtirish. Kalendar rejaga qo'yiladigan talablar va hisobot.	1 ta (ma'-ruza), 2 ta (amaliy mash-g'ulot), 5 ta (mustaqil ta'lim)
11	Olti yoshli bolalar bilan matematikaga oid ishlarning mazmuni va	Maktabgacha tarbiya va boshlangich ta'lim konsepsiyasi nuqtai nazaridan olti yoshli bolalarni oilada va bolalar bog'chasida maktab ta'limiga tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar.	2 ta (ma'-ruza), 1 ta (amaliy

	metodikasi.	Olti yoshli bolalarning psixologik pedagogik tasnifi. Arifmetik masalalar. Bolalarning arifmetik masalalarni tushinishining o`ziga xos xususiyatlari. Masalalar ustida ishlashda metodik usullar va izchillik. O`lchamlarning katta – kichikligi va sonlar o`rtasidagi funksional bog`liklik. Ikki o`lchamli fazoda mo`ljall olishga o`rgatish. Soat bo`yicha vaqtni aniqlash.	mash-g`ulot), 5 ta (mustaqil ta`lim
12	Bolalarni matematikaga o`g`atishda bolalar bog`chasi maktab va oila hamkorligi.	O`zbekiston Respublikasi Ta`lim to`g`risidagi qonuni (1992y) nuqtai nazardan bolalar bog`chasida bolalarni matematikaga tayyorlashga zamonaviy maktabi (1 sinf) qo`yadigan talablar. Matematika dasturlari mazmunidagi hamkorlik. Ish uslublaridagi hamkorlik. Bolalar bog`chasi va maktab ishidagi hamkorlikni tashkil qilish shakllari	2 ta (ma`ruza), 1 ta (amaliy mash-g`ulot), 5 ta (mustaqil ta`lim
13	Bolalar bog`chasida bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish ishiga metodik rahbarlik qilish.	Matematik tasavvurlarni shakllantirish ishini tashkil qilishda bolalar muassasasi mudirasi va katta tarbiyachining o`rni. Tarbiyachilar bilim darajasini va mahoratini oshirish shakllari	1 ta (ma`ruza), 1 ta (amaliy mash-g`ulot), 5 ta (mustaqil ta`lim
14	Maktabgacha tarbiya kollejida “maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” kursini	Maktabgacha tarbiya kollejida maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasini o`qitish vazifalari va uning o`quv rejasidagi o`rni. Dasturni tahlil qilish. Dastur materialini darslar bo`yicha taqsimlash. O`quvchilar bilan utkaziladigan mashg`ulotlar shakllari. O`zlashtirishni hisobga olish. Pedagogik kollejda “Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” kursini ko`rgazmali qurollar bilan jihozlash. o`quvchilarning bolalar bog`chasidagi	2 ta (ma`ruza), 1 ta (amaliy mash-g`ulot), 5 ta (mustaqil ta`lim

	o`qitish.	pedagogik amaliyoti. Ushbu kurs bo`yicha o`quv qo`llanmalar tasnifi. ba`zi ko`rgazmali qurollarni tayyorlash, O`TVdan foydalanish.	

IV. O`rta modullari va o`quv soatlarining umumiy soni

T/r	O`rta modullari	Soni va soati
1.	O`rta modullarning umumiy soni	22
2.	Ma`ruza o`quv soatlari	44
3.	Amaliy mashg`ulot soatlari	36
4	Mustaqil ta`lim soatlari	90
5	Jami o`quv soatlari	192

Izoh: Ta`lim yo`nalishi: 5141700 – Maktabgacha ta`lim va bolalar sporti. OO'MTVning 2008 yil 24 iyundagi 191-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O`quv reja"

1-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish asoslari va metodikasi kursining nazariy asoslari. (ma`ruza – 2 soat)

Mashg`ulot shakli	Kirish-informatsion mavzu bo`yicha ma`ruza. Talabalar soni 75 nafar
Ma`ruza rejasi	1)Bolalar bog`chalarida amalga oshiriladigan mashg`ulotlarning mazmun va moriyati. 2)Bolalar bog`chalarida bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish usullari va vositalari. 3)Maktabgacha talim muassasalarida bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishning ahamiyati.
O`quv mashg`ulotining maqsadi	O`quv kursi haqida umumiy tasavvurni berish.
Tayanch tushuncha va iboralar	Predmetlar to`plami va uziga xos xususiyatlari; tuplamning xarakteristik xususiyatlari; universal tuplam. Munosabatlarning xususiyatlari. Ekvivalentlik munosabati. Tartib munosabati. Butun sonlar miqdoriy tartib nazariyasining asosiy goyalari. Muxammad ibn Muso-al Xorazmiy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jamshid Giyosiddin al-Koshiy, Ulugbek asarlarida arifmetikaning rivojlanishi xakida dastlabki ma`lumotlar. Psixologik – pedagogik adabiyotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari. ye.I.Tixiyeva, F.N.Blexer, maktabgacha yoshdagi bolalarni matematika elementlariga urgatish tugrisida. Uzbekistondagi bolalar bogchalarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi asoslarining rivojlanishi.
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyati natijalari:
fanning maqsadi va vazifalari bilan	fanning maqsadi va vazifalarini aytib

tanishtirish;	bera oladilar;
fanning tuzilmasi, o`quv faoliyatini baholash mezonlari hamda tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro`yxati haqida ma`lumot beriladi;	kursning tuzilmasi, o`quv faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari va baholash shakllarini aytib bera oladilar;
MAktabgacha ta`lim muassasalarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining shakllanishi, zaruriyati va uning belgilari bilan tanishtiradi;	elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining shakllanishi, zaruriyati sanab bera oladilar;
Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yoritib beriladi;	elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yoritib beriladi;
Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining predmeti, mazmuni va asosiy vazifalariga xarakteristika beriladi;	elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining predmeti, mazmuni va asosiy vazifalarini tushuntirib beradilar;
O`qitishda foydalaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushincha beriladi	o`qitishda foydalaniladigan ilmiy tadqiqot metodlarini sanab beradilar.
O`qitish vositalari	ma`ruza matni, komp'yuter slaydlari, doska
O`qitish usullari	ma`ruza, namoyish, blits-so`rov, "aqliy hujum" usuli
O`qitish shakllari	frontal, guruhlarda ishlash
O`qitish sharoiti	Texnik vositalar (komp'yuter, mul'timedia proektor) bilan ta`minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Suhbat, kuzatish, savol-javob

Ish bosqich-lari	O`qituvchi faoliyatining mazmuni	Izoh	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich. Fanga va mavzuga kirish (20 min)	1.1. O`quv kursining asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o`tiladigan mavzular to`g`risida qisqacha tanishtiradi. O`quv kursi bo`yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllari va reyting ballari bilan tanishtiradi	1.1.1-ilova	Tinglaydilar
	Mazkur kurs bo`yicha o`rgani-ladigan mavzular bo`yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma`lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro`yxati bilan tanishtiradi. O`quv dasturi va tarqatma materialni tinglovchilarga tarqatadi.		Yozadilar, tinglaydilar
	Birinchi o`quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o`quv faoliyati natijalarini aytadi.		Mavzu nomini yozib oladilar
	Blits-so`rov usulida mavzu bo`yicha ma`lum bo`lgan tushunchalarni sanab berishni so`raydi	1.1.2-ilova	Tushunchalarga javob beradilar
2 - bosqich. Asosiy bo`lim (50 min)	Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi.		Tinglaydilar
	Ma`ruza rejasining 1-3 punktlari bo`yicha tushuntiradi, har bir punkt nihoyasida umimlashtirib boradi. Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi.	1.1.4-ilova Komp'yuter slaydlari	Tinglaydilar. Tarqatma materiallar to`plamida keltirilmagan qirralarini konspekt qilib boradilar.
	Tayanch iboralarga qaytiladi. Tinglovchilar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi ("Aqliy hujum" usulida). Mavzuga oid bo`lmagan iboralar olib tashlanib, kerakli tushuncha va iboralar qo`shiladi.	1.1.3-ilova	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Barcha ma`lumotni tizimlashtiradilar. Konspekt qiladilar.
3-bosqich.	Mavzu bo`yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo`yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma`lum qiladi.		Savollar beradilar
Yakunlovchi	Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.		

(10 min)	Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi.	1.1.4-ilovalar	Topshiriqlar yozib oladilar
	Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.		Yozadilar
	Keyingi mavzu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi.	2.1.1-ilovalar,	Yozadilar

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi fanidan

talabalar bilimni baholash mezonlari.

1.1.1-ilovalar

Nazorat turi		Nazorat turlari					Nazorat soni	Har bir nazorat uchun belgilangan maks.ball			Jam i ball
Joriy nazorat		1.Og`zaki so`rov (Uy vazifasi va amaliy mashg`ulotni bajarish, talaba mustaqil ishi) 2. Test (20 ta test)					2	15	20	15	
Jami							2	15	20	20	
Jami							2	15	20	35	
Fan	kur s	Sem estr	Jam i soat	1 soatlik ball	Baho	Oraliq nazorat		Joriy nazorat		Y a N	Jam i bal 100
Elem. matem at. tasavv. shakll	3	5	20	4,54	Mak.	15ball	20 ball	15 bal l	20 ba ll	30 ba ll	100 ball
					Saral .	8	11	8	11	16	54
					«3»	9-10	12-14	9-10	12 - 14	17 - 21	55-70
					«4»	11-13	15-17	11-13	15 - 17	22 - 25	71-85
					«5»	14-15	18-20	14-15	18 - 20	26 - 30	86-100

Oraliq nazorat	Yozma topshiriq (TMI) 2. Test (20 ta test)	2	15	20	15 20
Jami		2	15	20	35
Yakuniy nazorat	Yozma topshiriq (3 ta savol)	1	30		30
Jami					30
Jami					100

86 % - 100 % → 86-100 ball - «A`lo»

71 % - 85 % → 71-85 ball - «Yaxshi»

55 % - 70 % → 55-70 ball - «Qoniqarli»

0 % - 55 % → 0 – 54 ball - «Qoniqarsiz»

Kurs bo`yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

1.1.2-ilova

Mavzuni jonlantirish va talabalarni faollashtirish uchun savollar.

«Elementar matematik tasavvurlarni» fani nimani o`rganadi?

«Elementar matematik tasavvurlarni» fanining rivojlanish bosqichlari.


«Elementar matematik tasavvurlarni» fani qaysi fanlar bilan aloqador?

Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

5. «Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish» fanining qanday asosiy ilmiy tadqiqot metodlarini bilasiz?

1.1.3-ilova

II.1. Aqliy hujum



II.2. "Aqliy hujum" qoidalari:

Olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi; ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;

istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi; muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi; barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi; «Hujum»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart; beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Birinchi kichik modul

Berilgan ma'lumotlar. Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar «Ta'lim to'g'risida» gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilganidek, har bir boshlang'ich sinf matematika o'qituvchisi oldida muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu vazifalar boshlang'ich ta'lim uchun xos bo'g'inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo'g'inlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilinishi mumkin.

Davlat ta'lim standartlari o'quv fani bo'yicha o'quv metodik majmualar (dastur, o'quv rejasi, darslik) larni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligi va fanlararo bog'lanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bolalar bog'chalarida tarbiyalanuvchilar uch guruhga bo'lingan holda tarbiyalanadilar, ya'ni: kichik guruhlar, o'rta guruhlar, katta guruhlar. Olib borilayotgan mashg'ulotlarning mazmuni ularning yoshiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etiladi.

Maktabgacha yosh davri- bolalarning rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi, bu davrda ularning fiziologik, psixologik, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy, aqliy jihatdan rivojlanadi va shu bilan birgalikda insonlarga mehr oqibatli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat qilish kabi bir qator insoniy fazilatlarni tarbiyalashga zamin yaratiladi. Shu boisdan maktabgacha tarbiya muassasalarida mazkur maqsadlarga ko'ra kator ishlarni olib borish, shu jumladan, turli didaktik o'yinlar texnologiyalaridan foydalanish va boshqa vositalar orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ruhan tetik qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy fazilatlaridan biridir. Bola hayotining asosiy qismini o'yin bilan o'tkazadi. «Bola uchun o'yin-voqelik-deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, -binobarin, tevarak atrofdagi voqelikdan ko'ra ancha qiziqroq voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdir, o'yin bolaga shuning uchun tushunarliki, unda qisman bolaning o'zi yapatgan narsa bor».

Didaktik o'yinlar orqali bolalarning faoliyati mustahkamlanishi bilan birgalikda turli xil shakllar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlari shakllanib boradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalar faoliyati mustahkamlanadi, hayot haqidagi ilk tasavvurlari, jonli va jonsiz tabiat haqidagi o'y fikrlari, turli buyum predmetlarning ko'rinishi, nomi, rangi, shakli, tuzilishi, o'simlik va hayvonot olamidagi rang-baranglikni anglaydilar. O'yin jarayonida bolalar turli qiyinchiliklarni, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga harakat qilib o'rganib boradilar.

O'yin qadim zamonlardan mavjud bo'lgan va u ko'pgina pedagoglar, psixologlar, olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi

davridayoq yuzaga kelgan bo`lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi.

Bugungi kunda o`yinlarning turli-tuman turlari mavjud: milliy o`yinlar, harakatli o`yinlar, sport o`yinlari; so`z o`yini; qo`g`irchoq o`yini; ma'naviy ma'rifiy o`yinlar; intellektual o`yinlar; o`ylab top o`yinlari; zamonaviy texnika va kompyuter o`yinlari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o`yini o`zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko`ra xilma-xildir, uni quyidagi turkumlarga ajratishadi:

1)Ijodiy o`yinlar.

2)Qoidali o`yinlar.

Ijodiy o`yinlarni bolalarning o`zlari ixtiro etadilar. Bunda avvaldan belgilangan qoidalar bo`lmaydi, o`yin qoidasini bolalarning o`zlari o`yin jarayonida belgilab olishadi.

Ijodiy o`yinlar turlariga drammalashgan o`yinlar, kurilish o`yinlari,tabiiy materiallar bilan o`ynaladigan o`yinlar kiradi. Tabiiy materiallarning nomlanishi jarayonida geometrik figuralar, arifmetik hisob to`g`risidagi tushunchalar aytilishi natijasida bolalarda dastlabki elementar matematik tasavvurlar shakllantiriladi.

Qoidali o`yinlarning mazmunini va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o`yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o`yinlar, harakatli o`yinlar, musiqaviy o`yinlar.

Didaktik o`yinlar maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya vositasi sifatida keng qo`llaniladi.Didaktik o`yinlar ta'lim bilan bevosita uzviy bog`liq bo`lib unga yordam beradi.

Bunday o`yinlar kichik bolalar uchun «rangiga qarab top», «Shakliga qarab top»,va katta guruh bolalari uchun «Dehqonlar nimani yetishtirishadi», «Kim ko`proq narsani nomini ayta oladi», «Qarab olu eslab qol», «Nimaning shakli tasvirlangan» kabi o`yinlarni aytish mumkin

O`yinda qatnashgan bolalarni maktash rag`batlantirish mumkin. Didaktik o`yinining xususiyati shundaki, unda tarbiyachi bilan bolalar munosabati bevosita o`yin tarzida kechadi. Bunda tarbiyachi shu o`yin qatnashchisi yoki tashkilotchisi bo`ladi. O`yinlar bolalarda kuzatuvchanlikni, mashq qilish nutqlarini ravon qilish, elementar matematik tushunchalarni shakllanitirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi didaktik o`yinni bolalarni qiziqtirgan holatda tugallashi lozim, yani bolalar shu o`yinni yana davom ettirish istagi bilan qolsinlar.

Bolalar birdaniga tushunchalar vositasida o`ylamaydilar. Ularning tafakkuri ma'lum yoshgacha konkret bo`lib tasavvurlar yordamida vujudga keladi.

Tushunchani tarkib toptirishda shunga erishmoq kerakki, tushuncha bir xil miqdorlarning barcha muhim bo`lmagan xossalarini tashlab turib,ularning asosiy xossalarini va belgilarini umumlashtirishini bolalar yaxshi anglab olsin. Masalan «*Uchburchak*» tushunchasi- uchta burchagi va kesmalardan iborat uchta tomoni mavjudligini umumlashtiradi.

Inson tafakkuri nutq bilan, til bilan uzviy bogliq bo`lganligi sababli maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar fikr yuritishning vujudga kelishi va rivojlanishi ularning bilan o`lchanadi. Birok ularda kurgazmali xarakat, kurgazmali-obrazli tafakkur turlari bilan bevosita ifodalanadigan tafakkurdan

oldinroq namoyon bo`ladi. Bolada paydo bo`layotgan elementar tafakkur uning predmet va jismlarga, o`yinchoqlarga, buyumlarga nisbatan bildirilayotgan harakatlarida ko`zga tashlanadi. Bir yoshga yetguniga qadar ovoqli o`yinchoqlarni ushlab ko`rish va ulardan foydalana olish uquvining paydo bo`lishi fikr yuritish faoliyatida sifat o`zgarishlarining yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bolalarning o`yinchoqlar bilan bevosita va bivosita muloqotga kirishishi ularda tafakkurning o`saetganligidan dalolat beradi. Asta sekinlik bilan ularda analitik sintetik faoliyat vujudga keladi.

Oila a'zolari bola bilan muloqotga kirishganlarida uni suz va tushunchalar mohiyatiga yetaklashlari tafakkurning rivojlanishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Kattalarning jism va predmetlarning nomini aytib bolaga ko`rsatishlari va bunga javoban go`dakning munosabat bildirishi elementar tushunishning (anglashning) paydo bo`layotganligi va elementar matematik tasavvurlarning shakllanaetganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi kichik modul

Eng avvalo, matematik bilimlarni bolalar aniq tushinish uchun moslashtirilgan narsalarni o`zaro bog`liqlikda, biridan ikkinchisini hosil qilish tartibida keltirib chiqaradilar.

Narsalar va atrofdagi haqiqatning mavjudligini bila borish bilan biz narsalarni qismlarga ajratish va bir qancha elementlardan bir butun narsalarni tuzishni tushuntira boramiz. Butun bir narsani qismlarga ajratib fikrlashni tahlil deb ataymiz. Bu ikki fikrlash operatsiyasi o`zaro bir-biri bilan bog`liqdir.

Tahlil sintez o`zaro bog`langan bo`lib, arifmetika qonuniyatlarini o`qitishda qanday qo`llansa, misol va masalalar yechishda ham shunday qo`llaniladi.

O`qitishning birinchi qadamidayoq bolalar ko`rgazmali qurol yordamida predmetlar to`plamini ularni tuzgan elementlarga ajratib tahlil qiladi va ko`rgazma asosida elementlar sintez (birlashtirib) qilib to`plam hosil qiladi.

Mashg`ulotda oldingi amalga oshirilgan barcha ishlar o`quvchining mustaqil ravishda Yangi bayon qilingan qoida-qonunlari asosida misol-masala yechishga qaratilmog`i kerak. O`quvchilar bilan yangi mavzuga taalluqli mustaqil ish bajarish o`quvchiga yangi mavzuni o`quvchilar qanday o`zlashtirganligi, o`quvchilar bilimda qanday kamchiliklar borligi to`g`risida ma'lumot beradi. Bu vaqtda o`quvchilar o`zlarining bilimlarini mustahkamlaydi, ba'zi malakalar hosil qiladi, uy vazifasini bajarishiga tayyorlaydi, yangi mavzuni o`zlashtirish bilan bog`liq bo`lgan qiyinchiliklarni yengadi. Mustaqil ish tekshirish va umumlashtiruvchi xulosani takrorlash bilan yakunlanadi.

Uyga vazifa. Uy vazifasining mazmuni bir tomondan mashg`ulotda o`rganilgan ya'ni materialni mustahkamlashga qaratilgan bo`lsa, ikkinchi tomondan keyingi darsga tayyorlashga qaratilmog`i kerak.

Yasli yeshidagi bolalarning tafakkuri primitiv xukmlarda uz ifodasini topa boradi. Shunga karamasdan mazkur yeshdagi bolalarning tafakkuri bevosita idrok kilinaetgan konkret narsalar xakida fikr yuritishdan nari utmaydi. Unda nutk kanchalik kanchalik sodda tushuncha va iboralar yerdamida mfodalansa tafakkur xam shu darajada elementar buladi. Bolada asta sekin fikr yuiritish operatsiyalari namoen bula boshlaydi, uyinchoklarni takkoslash, kislmlarga ajratish, kubiklardan

piramidalar yasash, rang, shakl belgilariga karabguruhlarga ajaratish, xatto elementar darajada predmetlarni umumlashtirish jaraaelari vujudga keladi. Bu esa bolalarda dastlabki elementar matematik tasavvur va tushunchalarning shallanishiga sabab buladi. Bolaning fikr yuritishini sxematik tarzda bunday ifodalash mumkin: uyin-idrok-kurgazmali xarakat-tafakkur-obrazli tafakkur.

Hukm chiqarish svollarga javob berish orqali rivojlanadi. Jumladan, kattalarning bu kim?,kaerda? Bu nima? Bu kanday shakl?singari savoolarida xukmlarda ifodalangan javob berishadi: «opa», «uyinchok», «aylana» va xokazo.Agarda bolaga lugatida bulmagan tushunchalar bilan ifodalangan savol berilsa, anglay olmaganligini bildirish maksadida mulokotdagi odamga u savol nazari bilan karashi mumkin. Demak yasli yeshidagi bolalar xukm suz va tushunchalar orqali ifodalanadi. Lekin u bu bilan chegaraalanib kolmaydi, balki uzi uchun yekimtoy bulgan narsalarning xaraakati va tuzilishi tugrisida ma'lumot berishi mumkin. Narsa va xodisalarning muxim va nomuxim belgisini farklash jaraaeni nutk yerdamida aks ettiiriladi. Bola uz faoliyatida xukmchiqarishdan asta-sekin xulosa chiqarishga uta boshlaydi.

Yasli yeshidagi bolalar narsa va xodisalarning uxshash va umumiy belgilarini kattalar nutkidan bevosita uzlashtirib olgan tarzda foydalanadilar: begona chollar «buva», kari aellar «buvi»,Utirishga muljallangan narsalar «stul»,dumalok shakllar «koptok» va xokazo. Demak ular narsa va jismlarni umumlashagan xolda ifodalashda katta yeshdagi odamlarga taklid kiladilar, kattalarning tafakkur maxsullaridan «tayer xolda» foydalanadilar.

Lekin bolalar mustakil ravishda muxim belgilarga asoslanagan xolda umumlashtirishni amalga oshira olmaydilar.Amalga oshirilgan umumlashtirish faoliyati kupincha nomuxim tashki belgilarga suyangan tarzda namoen buladi. Shaxsiy tajribalariga suyangan xolda fikr yuritishga xaraakat kiladilar. Muayyan narsalarning barchasi tashki belgiga asoslanib umumlashtirib «muev» deb ataydilar, turli zotga xos bulgan kushlar, tovuklar bir suz bilan «kisht-kisht» deb nomlanadi. Shunday kilib yasli yeshidagi bolalarda umumlashtirish tashki nomuxim belgi va alomatlarga asoslangan xolda amalga oshirilar ekan.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tafakkuri o`zining konkretligi yaqqolligi bilan yasli yeshidagi bolalar ga yakig turadi, lekin mazmun jixatidan tafovutlanadi.

Ularda tajriba va matematik bilimlarning tuplanishi, tarbiyaning bevosita ta'siri, akl idrokning kuchayishi fikr yuritish jaraenini takomillashtiradi. Natijada tafakkur operatsiyalari va fikr yuritish formalarida aniklik, takomillik mufassallik, ravonlik kabi sifat uzgarishlari yuz beradi. Maktabgacha tarbiya yeshidagi bolalar kaysi bir faoliyatni amalga oshirmasinlar, bari bir maksaddan kelib chikkan xolda ish yuritadilar. Ularning fikr yuritishlari murakkab xarakatli va syujetli uyinlarda, kuchiga yarasha mexnatni uddalash protsessida rivojlanadi. U yeki bu faoliyatni amalga oshirishda taklidchanlik urnini mustakillik elementlari egallay boshlaydi. Nutkning usishi, lugat boyligining ortishi, mulokat kulamining kengayishi tafakkurning rivojlanishi uchun muxim imkoniyat yaratadi.

Mazkur yoshdagi bolaning fikr yuritish ob'ekti kengayib, qiziqish doirasi ortib boradi. Atrof muxitdagi narsalarni bevosita aks ettirish bilan qanoat hosil qilmasdan, balki bilvosita (bavosita)yul bilan bilimlarni o`zlashtirish va

informatsiyalarni qabul qilishga imkoniyat tugʻiladi. Asta sekin idrok qilgan narsa va xodislar toʻgʻrisida muloxaza yuritishdan ilgari idrok qilgan ob'ektlar toʻgʻrisida fikr yuritishga, xatto kelajak yuzasidan xael obrazlarini yaratishga, ya'ni bivosita yul bilan tafakkur qilishga utadi. Unda kelajak maksadi va vazifasi yuzaga keladi, bayramlar, tugilgan kun va yubileytslarni nishonlash xakida fikr yuritadigan bulib koladi. Afsona va ertaklar olamiga kirib borish maktabgacha tarbiya yoshidagi bola fikr yuritishi uchun zamin xozirlaydi.

Ushbu yoshdagi bola xukm chiqarishda idrok materiallaridan tashkari tasavvurlardan xam foydalanadi. Shunga karamasdan, xukmchiqarishning asosini kattalardan «tayer xolda» uzlashtirgan xukmlar egallaydi. Katta yoshdagi odamlar tomonidan bildirilgan fikrlar chin xukm sifatida kat'iy ravishda qabul kilinadi. Ularda yetarli darajada tafakkurning tankiyliigi sifati usmaganligi natijasida kupgina narsa va xodisalarning xakikatga tugri kelishi va riallikka aylanishini idrokkilib, nomivoklikdan ajrata oladilar. Masalan, ota tramvay rasminisolib, relsni chizishni unutadi, bola yesa undan suradi: «Tramvay nimada yuradi?» - «Relsda». - «Xaydovchi qayoqda, shatakka oladigan joyi yoʻq-ku»?! Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur ayrim xukmlarda ifodalanishda muloxaza va xulosa chiqarishda aks yetirishga uta boradi. lekin ularning tafakkurida fikrning yunalishi muayyanlikd vaizchillikka yega bulmasligi okibatida muloxazalarda takror va takror xukmlar mavjudligi, uzara mantikiy boglanishning yukligi, xatto tasdikbilan inkor urtasida zidlik borligi kuzga tashlanadi. Ular uz muloxazalarda xulosa chakirishning asosan analogiya yulini amalga oshirsalar-da, goxo deduktiv yul bilan xulosa chiqarishdan foydadanadilar. Xulosa chiqarish formalari kattalar nutki bilan birgalikda uzlashtirib olinadi.

Uchinchi kichik modul

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tushunchalar konkret xarakterda bulsa xam, lekin yasli yoshidagilarga karakaganda mazmundor, kupgina muxim belgilar aks yettirilgan buladi. Shuning bilan birga tushunchalarning tashki, nomuxim ikkilamchi alomatlar xam ular uchun muxim axamiyatga egadir. Ana shu tashki belgilariga intilish natijasida ularda tushunchaoar uzlashtiriladi. Ular uchun tushunchaning foydalanish urni muxim belgi sifatida qabul kilinadi. Masalan, «kush kanday xarakat kiladi?» «uchburchak nima?» «koptok kanday shaklda?» kabi savollarga nomuxim belgini muxim deb tushunib javob beradi: «kushning kanoti bor, uchib yuradi» «uchta burchagi bor» «koptok yumalok shaklda, biz ubilan uynaymiz» va x.k.

Mazkur yoshdagi bolalarda sabab, okibat, izoxlash talab xolatlar yuzasidan fikr yuritish kuchayadi. Natijada «*Nega?*» «*Nima uchun?*», «*Qanday qilib?*», «*Nima boʻladi?*» kabi savollarni kattalarga beradi, uning barchasiga javob olsalar xam, lekin sabab okibatni uzlaricha izoxlashga urinadilar. Ammo tabiat va jamiyat konunlari toʻgʻrisidagi murakkab bilimlarni uzlashtira olmaydilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning atrof muxitdagi narsalar xususiyatlarini bilishga qiziqishi, taajjublanishi, xayajonlanishi tafakkurni aktivlashtiradi. Mantikiy tafakkurning xukm chikarish formalarini elementar shaklda oʻzlashtirib olish, maktab ta'limi uchun puxta zamin tayorlaydi.

Topshiriqlar

- 1) Davlat ta'lim standartlari deyilganda, siz nimani tushunasiz?
- 2) O'qituvchi o'quv-biluv faoliyatida nimalarni hisobga olishi muhim?
- 3) O'quv dasturi nima?
- 4) Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi fanining predmeti nimadan iborat?
- 5) Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar bilan aloqasi nimadan iborat?
- 6) O'quv reja nima?
- 7) Matematika va metodika so'zlarining ma'nosini ayting?
- 8) o'qitishda fanlararo bog'lanishni qanday to'g'ri amalga oshiriladi?
- 9) Ta'lim-tarbiya jarayoni nima uchun ustuvor deb e'lon qilindi?

Foydalanilgan adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: SHarq, 1997
- O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: SHarq, 1997
- Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. –Toshkent.: O'zbekiston, 1992
- Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
- Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: O'zbekiston, 2008.
- Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.:O'zbekiston,2009.
- Bikbaeva N.U, Ibragimova Z.I, Qosimovca X.I “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” T “O'qituvchi” 1995.
- Bikbayeva N.U va b. “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish” T 1996.
- Bikbayeva N.U “Bolalar bog'chasida matematika mashg'ulotlarini rivojlantirish” T 1998.
- Bikbayeva N.U, Aliyeva U.S “Matematika” maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyachilari uchun metodik qo'llanma. T 1999
- “Bolalar bog'chasida ta'lim tarbiya dasturi” 1-4 sinflar uchun dastur T 1998.
- Alxauz D. “Rang forma miqdor” M 1994.
- Uch minginchi yil bolasi dastur. T 1999.
- Abdiquodirova F.Pedagogik texnologiyalar va ularning boshlang'ich ta'limdagi samaradorligi // “Pedagogik mahorat” jurnali. -Buxoro, 2008.-№ 1.
- Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: O'zbekiston YOzuvcilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
- Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi.T.: O'qituvchi,2001. Ahmedov M.,

Bikbayeva N.U., Yangabayeva E., Girfanova K., Kichik Yoshdagi maktab o'quvchilarini boshlang'ich matematik ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish". -T: "Turon-Iqbol", 2008. -88 b.

Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari, T.: "O'qituvchi", 2004.

Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.-T.: "Moliya",2003. –

Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi 7-maxsus son T.: "SHarq"nashriyot-matbaa konserni, 1999.

Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: "Fan", 2006.

Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari.-T.: "TIV-KITOB",2009.

Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli.-T.: "Lider Press", 2009.-104 bet

Mundarija

KIRISH:	3-6
Zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida elemntar matematik tasavvurlarni shakllantirish fanining milliy modeli	6-12
MA'RUZA	
1. BIRINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish asoslari va metodikasi kursining nazariy asoslari.....	12-23
2. IKINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematika elementlariga o'rgatishini tashkil qilish.....	23-33
3. UCHINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Hayotning uchinchi va to'rtinchi yilida bolalardamiqdoriy tasavvurlarni rivojlantirish.....	33-49
4. TO'RTINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: 3-4 yoshli bolalarda miqdoriy tasavvurlarning xususiyati.....	49-62
5. BESHINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalarda son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish sanashga o'rgatish.....	62-74
6. OLTINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalarda premetlarning shakli haqidagi tasavvurlarni shakllantirish	74-85
7. YETTINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalarda predmetlarning o'lchami va ularni o'lchash haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.....	85-104
8. SAKKIZINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish	104-127
9. TO'QQIZINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalarda vaqt tasavvurlarini shakllantirish	127-140
10. O'NINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalar bog'chasida bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha ishni	140-146

rejalashtirish va qayd qilish.....	
11. ONBIRINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Olti yoshli bolalar bilan matematikaga oid ishlarning mazmuni va metodikasi.....	146-153
12 O'NIKKINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalarni matematikaga o'g'atishda bolalar bog'chasi maktab va oila hamkorligi	153-163
13.O'N UCHINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Bolalar bog'chasida bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish ishiga metodik rahbarlik qilish.	163-180
14.O'N TO'RTINCHI KATTA MA'RUZA MODULI: Maktabgacha tarbiya kollejida "maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi" kursini o'qitish	180-188